O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

УзР ОУМТВ
Буйрук № 367
«20» 05 2023 йил

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari t*a'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari t*a'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	*60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i	11

1. 60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi

60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha) Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim tashkilotlariini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

***60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi** – fan va texnika sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, qurilish sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, uslublari hamda sanoat va fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo‘llash, bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasi, turar–joy binolariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalash bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– turar–joy binolari, mehmonxona, yotoqxona, kam va ko'p qavatli turar–joy binolari, jamoat binolari, bog'chalar, maktablar, akademik-litseylar, professional ta'lim muassasalari, OTM o'quv binolari, hokimiyat, davlat boshqaruvi binolari, barcha turdagi sanoat korxonalari binolari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, arxitektura va qurilish sohasida zamonaviy bino va inshootlar qurilishi yutuqlaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, qurilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ishlash va sohaga tegishli laboratoriyalarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy–tadqiqot;
- loyiha–konstruktorlik;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy–boshqaruv;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.4. 60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavr bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

– qurilish sohasiga tegishli yangi texnik vositalar, tizimlar, texnologiyalar, jarayonlar, qurilmalar, konstruksiyalar, yangi turdagi qurilish materiallari va konstruksiyalarini, muhandislik kommunikatsiya tizimlarini yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda, yangi mashinalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni sinovdan o'tkazishda zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

– tanlangan faoliyat yo'nalishiga mos keluvchi ilmiy–texnik axborotlar, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilishi;

– berilgan uslublar bo'yicha eksperimentlarni qo'yish va o'tkazish, loyihalashni avtomatlashtirishning standartlashtirilgan paketlari asosida matematik modellashtirish usullarini egallagan bo'lishi;

– bino va inshootlar qurilishi sohasiga tegishli nazariy, amaliy, fundamental, innovatsion va tajribaviy ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirilishida ishtirok etish;

– ilmiy–tadqiqot, loyiha institutlari va baholash konsalting xizmati markazlarida axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy–tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

– axborot xavfsizligiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy–tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

– kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy–tadqiqot loyihalarini o'rganish;

– respublika va xorijda chop etilgan ilmiy–texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

– internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirib topish va amaliyotga qo‘llash;

– ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobot tuzish, berilgan uslublar bo‘yicha eksperimentlarni qo‘yish va bajarish usullarini egallash.

Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlarini loyihalash va konstruksiyalash to‘g‘risida tushunchalariga ega bo‘lish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlarini muhandislik tizimlari va jihozlarini loyihalash borasida tasavvurga ega bo‘lish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlarini qurish, ta’mirlash hamda rekonstrkutsiya qilish bilan bog‘liq loyihalarini ishlab chiqish;

– yuk ko‘taruvchi qurilish konstruksiyalari va uskunalarini avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda hisoblash va konstruksiyalash;

– ichki va tashqi to‘siq konstruksiyalarni hisoblashni va loyihalash;

– loyiha ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy–konstruktorlik hamda qurilishni rejalashtirish, tashkil etish ishlarni bajarish loyihalarini ishlab chiqish va ularni rasmiylashtirish;

– binolarning energiya samaradorligini ta’minlaydigan hajmiy–tarxiy va konstruktiv yechimlarini loyihalash, energiya samarador qurilish materiallari va zamonaviy muhandislik qurilmalaridan foydalanish;

– ishlab chiqiladigan loyihalar, loyihaviy konstruktorlik hujjatlarni, topshiriqlar, standartlar, normalar, texnik shartlar va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq kelishini ta’minlash.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

– qurilish ob’ektlarida ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini bajarishda usta (master), qurilish ishlarini boshqaruvchi (prorab), muhandis hamda loyiha tashkilotlarida konstruktor bo‘lib ishlash;

– turli qurilish ob’ektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo‘llash;

– qurilishda qo‘llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlarini barpo etishda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

– qurilish, ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga muhandislik tayyorgarlik ishlarini bajarish;

– ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

– shaharsozlik va kasbiy etika kodekslariga, hamda mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish.

Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida:

– ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

– ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’ektlari qurilishi sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

– qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlari qurilishida zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullarini va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlarini qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilishni amalga oshirish ishlari sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish hamda tatbiq qilish;

– atrof–muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tadbiq qilish;

– ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarishda texnik va mualliflik nazorati, shuningdek davlat arxitektura qurilish nazoratini amalga oshirish;

– fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

– birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish zveno va brigadalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– qurilish ishlari rejasini tuzish va nazorat qilish, zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

– ishlab chiqarish jarayonlarini va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish.

Foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlaridan foydalanish jarayonida xizmatlar ko'rsatish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlari konstruksiyalari, muhandislik kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlarini qurish–ta'mirlash ishlarini tashkil etish bo'yicha xizmat ko'rsatish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlari konstruksiyalar va asbob–uskunalarning texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash usullarini aniqlash.

2. 60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– me'yoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

– qurilish ob'ektlarida ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini bajarishda usta (master), qurilish ishlarini boshqaruvchi (prorab), muhandis hamda loyiha tashkilotlarida konstruktor bo'lib ishlash;

– turli qurilish ob'ektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo'llash;

– qurilishda qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlarini barpo etishda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;

– turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'ektlari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

– qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga muhandislik tayyorgarlik ishlarini bajarish;

– ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

– shaharsozlik va kasbiy etika kodekslariga, hamda mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish borasida ***ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarga muhandis-quruvchi kvalifikatsiyasi beriladi.

2.3.2. *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5760	192

Tanlov fanlar	1080	36
Malakaviy amaliyot	240	8
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. *60730300 – Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		**Majburiy fanlar**	**5880**	**196**	**1,2,3,4,5,6,7,8**
1.01	OM 1124	Oliy matematika	600	20	1,2,3,4
1.02	FIZ 1108	Fizika (statika)	240	8	1,2
1.03	KIM 1104	Kimyo	120	4	1
1.04	IT 1108	Ingliz tili	240	8	1,2
1.05	O'(R)T 1102	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.06	QAT 1108	Qurilishda axborot texnologiyalari (Python/Matlab)	240	8	1,2
1.07	ChGMG 1108	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	240	8	1,2
1.08	JTS 1202	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
1.09	O'EYT 1202	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.10	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.11	FAL 1302	Falsafa	120	4	3
1.12	MD 1304	Muhandislik dinamikasi	120	4	3
1.13	MG 1304	Muhandislik geologiyasi	120	4	3
1.14	TOP 1304	Topografiya	120	4	3
1.15	MI 1402	Muhandislik iqtisodiyoti	120	4	4
1.16	QE 1404	Qurilish ekologiyasi	120	4	4
1.17	MQ 1404	Materiallar qarshiligi	120	4	4
1.18	MB 1402	Muhandislik ustivorligi	120	4	4
1.19	GM 1408	Gruntlar mexanikasi	240	8	4,5
1.20	ITT 1504	Issiqlik texnikasi (termodinamika)	120	4	5
1.21	GID 1504	Gidravlika	120	4	5
1.22	QMB 1504	Qurilish materiallari va buyumlari	120	4	5
1.23	TB 1510	Temir-beton	300	10	5,6
1.24	SS 1508	Inshootlar statikasi	240	8	5,6
1.25	ITVT 1604	Issiqlik ta'minoti va ventilyatsiya tizimi	120	4	6
1.26	PK 1604	Po'lat konstruksiyalar	120	4	6
1.27	BIBET 1604	Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi	120	4	6
1.28	NGIQT 1604	Neft va gaz inshootlarini qurish texnologiyasi	120	4	6
1.29	PQ 1704	Poydevor qurilishi	120	4	7
1.30	QM 1704	Qurilishda menejment	120	4	7
1.31	BIMK 1708	Bino va inshootlari mutaxassisligiga kirish	240	8	7,8
1.32	BKLKT 1704	Bino konstruksiyalarini loyihalashda kompyuter texnologiyalari (Lira, SAPR200)	180	6	7
1.33	MMVS 1704	Mehnat muhofazasi va salomatligi	120	4	7
1.34	YTO'RK 1802	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	120	4	8
1.35	TVI 1804	Tadbirkorlik va innovatsiya	120	4	8
1.36	QBT 1804	Qurilishda BIM texnologiyalari	120	4	8
2.00		**Tanlov fanlari**	**960**	**32**	**3,4,5,6,7,8**
2.00		*Tanlov fanlar (8 ta fan)*	**960**	**32**	**3,4,5,6,7,8**
		Jami	**6840**	**228**	**1,2,3,4,5,6,7,8**
		Malakaviy amaliyot	**240**	**8**	**2,4,6,8**
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	**120**	**4**	**8**
		Jami	**360**	**12**	**1,2,3,4,5,6,7,8**
		HAMMASI	**7200**	**240**	**1,2,3,4,5,6,7,8**

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, profil, o'qib o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriat o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, bino, inshoot, loyiha, loyihalash, avtomatlashtirilgan loyihalash, issiqlik himoyasi, konstruksiya, hisoblash, texnik–iqtisodiy ko'rsatkichlar, konstruktiv yechim, konstruktiv sistema, qurilish sistemasi, qurilishni ishlab chiqarish, qurilish materiallari, turar–joy binolari, hajmiy–tarxiy, temirbeton konstruksiyalar, metall, hisobiy yuklar, deformatsiya, birikmalar, metrologiya, standartlashtirish, sanoat binolari, suv ta'minoti, kanalizatsiya, shamollatish, zamin, poydevor, grunt, qurilishni tashkil qilish va rejalash jarayoni.

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий турдош олий таълим муассасалари ҳамда кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:

Тошкент архитектура-қурилиш университети

Ректор_____Э.Каҳя

2023 йил «_____» _____

М.Ў.

КЕЛИШИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари маркази

Директор _____ Ш.Якубов

2023 йил «_____» _____

М.Ў.

Тошкент давлат транспорт университети

Ректор _____ О.Абдурахмонов

2023 йил «_____» _____

М.Ў.

“12-ТРЭСТ” АЖ

Директор _____Ф.Назиров

2023 йил «_____» _____

М.Ў.

“Ўзоғирсаноатлойиҳа” АЖ

Директор _____ Б.Хазраткулов

2023 йил «_____» _____

М.Ў.

Тошкент архитектура-қурилиш университети
60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича малака талаблари ва ўқув режасининг ишлаб чиқувчилар, турдош олий таълим муассасалари ва асосий кадрлар истеъмолчилари ўртасида

КЕЛИШУВ ДАЛОЛАТНОМАСИ

Тошкент ш. “___” _____2023 йил

Биз қуйида имзо чекувчилар – Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари маркази директори Ш.Якубов, Тошкент давлат транспорт университети ректори О.Абдурахмонов, “12-ТРЭСТ” АЖ директори Ф.Назиров ва “Ўзоғирсаноатлойиҳа” АЖ директори Б.Хазраткуловлар биргаликда ТАҚУда ишлаб чиқилган қуйидаги бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари ва ўқув режаси мазмуни билан танишиб чиқиб, келишув ҳақида ушбу далолатномани туздик:

60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши.

Малака талаблари ҳамда ўқув режани ишлаб чиқилишида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сон, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 ноябрдаги “Архитектура-қурилиш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-416-сон қарорларига ҳамда олий таълим соҳасини тартибга солувчи бошқа меъёрий-ҳуқуқий хужжатлар, шунингдек, халқаро талабларга асосланган.

Мазкур малака талаблари ва ўқув режаларининг ишлаб чиқилишида асосий кадрлар истеъмолчилари томонидан қўйилган талаблар ҳам инобатга олинган.

Таълим йўналиши бўйича малака талаблари ўқув режа ва фан дастурлари хамда бошқа ҳужжатларни яратиш учун асос бўлиб ҳисобланади.

Ишлаб чиқилган малака талаблари ва ўқув режани ўрнатилган тартибда тасдиққа тавсия этиш мумкин.

Тошкент давлат транспорт университети ректори **О.Абдурахмонов**

“12-ТРЭСТ” АЖ директори **Ф.Назиров**

“Ўзоғирсаноатлойиҳа” АЖ директори **Б.Хазраткулов**

Тошкент архитектура-қурилиш университетида
ишлаб чиқилган 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган
малака талаблари ва ўқув режасига

ТАҚРИЗ

60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) бакалавриат таълим йўналишининг малака талаби Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон Фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 ноябрдаги "Архитектура-қурилиш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-416-сон қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб тайёрланган.

Малака талаби 730000 – "Архитектура ва қурилиш" соҳаси Давлат таълим стандарти, Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори, Ўзбекистон Республикаси Миллий малака рамкасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Малака талабларида 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) бакалавриат таълим йўналишининг умумий таснифи, яъни қўлланилиш соҳаси, мазкур таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятлари, бакалаврларнинг касбий компетенцияларига қўйиладиган талаблар умумий компетенциялар ва касбий компетенцияларга ажратилган ҳолда баён қилинган. Шунингдек, таълим йўналишининг ўқув режаси ва фанлар дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар шунингдек, ўқув режасидаги юклама ҳажмига қўйилган талаблар тавсифи батафсил очиб берилган..

Тайёрланган малака талабида "кредит-модуль" тизимининг жорий этилгани, танлов фанларининг кўпайганини алоҳида таъкидлаш лозим. Бунда ривожланган давлатлар олий таълим муассасаларининг илғор тажрибалари ва тавсияларидан фойдаланган ҳолда халқаро таълим стандартлари жорий қилингани, малакали профессор-ўқитувчилар ва иш берувчи ташкилотларнинг етакчи малакали мутахассислари ҳамкорликда сифатли ўқув дастурлари ва ўқув материалларини ишлаб чиқиш орқали таълим сифатини оширилиши, замонавий таълим технологиялари ва ўқув жараёнларини ташкил этишнинг самарали шаклларини ўзлаштириш орқали педагог кадрлар салоҳиятини оширишга кўмаклашувчи рақобат муҳитини яратилиши, талабага таълим дастурини мустақил шакллантириш имкониятини яратиш ва билимини баҳолашнинг ошкоралигини таъминланиши муҳим аҳамиятга эга.

Тайёрланган малака талабининг мукаммал бажарилганлигини тан олган ҳолда, айрим масалаларда қуйидаги фикрларни билдиришни лозим деб топдим.

1) Малака талабининг охирида ўқув даврининг умумий ҳажмининг мақсадга мувофиқ тақсимланиши тўғрисида маълумотлар кундузги, кечки ва сиртқи таълим шакллари учун берилган. Шунинг учун, бакалавриат дастурининг меъёрий муддатини ҳам фақат кундузги таълим шакли учунгина эмас, балки кечки ва сиртқи таълим шакллари учун кўрсатиш керак.

2) Малака талабининг 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг соҳалари ёритилган 1.2.1-бандида мазкур таълим йўналиши қамраб оладиган комплекс масалалар ичида "*бино ва иншоотларнинг техник эксплуатацияси*", 1.2.2-бандда "*бино ва иншоотларнинг техник эксплуатациясини ташкил этиш*" масалалари таъкидлаб ўтилган. Менинг фикримча 1.2.2-бандда санаб ўтилган касбий фаолият турларига "*бино ва иншоотларнинг техник ҳолатини баҳолаш*" фанини ҳам қўшиш керак. Ўқув режасига бу фан киритилган.

Юқорида билдирилган тавсияларни ҳисобга олган ҳолда 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича ишлаб чиқилган Малака талаби ва ўқув режасини тасдиқлашга тавсия этаман.

"ЎЗОҒИРСАНОАТЛОЙИҲА" АЖ
директор ўринбосари **Ў. Қучкарбаев**

Тошкент архитектура-қурилиш университетида
ишлаб чиқилган 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган
малака талаблари ва ўқув режасига

ТАҚРИЗ

Малака талаби 730000 – “Архитектура ва қурилиш” соҳаси Давлат таълим стандарти, Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори, Ўзбекистон Республикаси Миллий малака рамкасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) бакалавриат таълим йўналишининг малака талаби Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 ноябрдаги “Архитектура-қурилиш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-416-сон қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб тайёрланган.

Малака талабида 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) бакалавриат таълим йўналишининг умумий таснифи, яъни қўлланилиш соҳаси, мазкур таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятларининг тавсифи батафсил очиб берилган. Бундан ташқари ишлаб чиқилган малака талабида 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг касбий компетенцияларига қўйиладиган талаблар умумий компетенциялар ва касбий компетенцияларга ажратилган ҳолда баён қилинган. Ҳужжатда таълим йўналишининг ўқув режаси ва фанлар дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар шунингдек, ўқув режасидаги юклама ҳажмига қўйилган талаблар аниқ кўрсатиб ўтилган.

Тайёрланган малака талабида “кредит-модуль” тизимининг жорий этилгани, танлов фанларининг кўпайганини алоҳида таъкидлаш лозим.

Юқорида билдирилган тавсияларни ҳисобга олган ҳолда 60730300 – Қурилиш муҳандислиги (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича ишлаб чиқилган Малака талаби ва ўқув режасини тасдиқлашга тавсия этаман.

Тошкент давлат транспорт университети
“Бино ва саноат иншоотлари қурилиши”
кафедраси профессори **Р. Пирматов**